

MADANIY ASSIMILYATSIYA: MILLIY O'ZLIKNING YO'QOLISH SABABLARI VA OQIBATLARI

Ilxomov U.U.

o'qituvchi

O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

Ismoilova Mohira Sherzod qizi

Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18272491>

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy assimilyatsiyaning milliy o'zlikka ta'siri tahlil qilinadi. Assimilyatsiya jarayonining asosiy sabablari sifatida globalizatsiya, migratsiya, ommaviy madaniyat ta'siri va siyosiy omillar ko'rib chiqiladi. Milliy madaniyat, til va qadriyatlarning yo'qolishi uning asosiy oqibatlaridan biri sifatida namoyon boladi. Shuningdek, bu jarayon jamiyatdagi madaniy xilma-xillikning kamayishiga va milliy identifikatsiyaning susayishiga olib kelishi mumkin. Maqolada madaniy assimilyatsiyaning oldini olish va milliy o'zlikni saqlash bo'yicha muhim tavsiyalar ham beriladi. Ushbu mavzuni o'rganish milliy madaniyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: madaniy assimilyatsiya, milliy o'zlik, globalizatsiya, migratsiya, ommaviy madaniyat, til yo'qolishi, milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar, milliy merosni asrash, assimilyatsiyaning oqibatlari, milliy identifikatsiya inqirozi.

Annotation. The article analyzes the impact of cultural assimilation on national identity.

Globalization, migration, the influence of mass culture and political factors are considered as the main causes of the assimilation process. The loss of national culture, language and values is one of its main consequences. Also, this process can lead to a decrease in cultural diversity in society and a weakening of national identity. The article also provides important recommendations on preventing cultural assimilation and preserving national identity. Studying this topic will help determine measures aimed at the preservation and development of national culture.

Keywords: cultural assimilation, national identity, globalization, migration, popular culture, loss of language, national values, traditions and customs, preservation of national heritage, consequences of assimilation, crisis of national identity.

Har bir millatning o'ziga xos madaniyati, tili, an'analari va qadriyatlari uning milliy o'zligini belgilaydi. Bu milliy o'zlik avloddan-avlodga o'tib, xalqning tarixiy xotirasini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, tarixiy va zamonaviy jarayonlar natijasida ba'zi xalqlarning milliy o'zligi yo'qolish xavfi ostida qolmoqda. Ushbu jarayon madaniy assimilyatsiya deb atalib, bir madaniyatning boshqa bir kuchliroq madaniyatga singib ketishini anglatadi.

Madaniy assimilyatsiya – bu turli etnik merosga ega bo'lgan shaxslar guruhlarida yanada taniqli dominant madaniyatga qo'shilish jarayoni sifatida aniqlanadi.

Assimilyatsiya jarayoni kichikroq guruhdan dominant guruhga xos xususiyatlarni egallashni talab qiladi, shuning uchun ularni aholining qolgan qismidan ajratib bo'lmaydi[1].

Madaniy assimilyatsiya asosan ixtiyoriy ravishda kechadi, ba'zi hollarda majburiy bo'lishi ham mumkin.

Bugungi kunda globalizatsiya, urbanizatsiya, migratsiya va ommaviy madaniyat madaniy assimilyatsiyani tezlashtirayotgan asosiy omillardan hisoblanadi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashishi milliy madaniyatlarni jahon madaniyati ichida yo'q bo'lish xavfiga olib kelmoqda. Shuningdek, ba'zi hududlarda siyosiy bosim, iqtisodiy omillar va ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ham milliy madaniyatning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston – Sharq sivilizatsiyalarining eng qadimiy va boy merosga ega o'lkalardan biri.

Tarixiy jarayonlar davomida ushbu hududda turli madaniyatlar, dinlar va ijtimoiy tizimlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan noyob madaniy muhitga ega boldi. Bugungi kunga kelib madaniy assimilyatsiya o'zbek xalqining ham milliy o'zligi, urf-odat va qadriyatlari hamda an'analariga o'zining ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bunga sabab qilib globallashuv, migratsiya jarayoni hamda internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashishini ko'rsatish mumkin.

Globallashuv bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarning ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayon O'zbekiston madaniyatiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda.

Globallashuv O'zbekistonning madaniy o'ziga xosligiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan bu iqtisodiy rivojlanish va madaniy almashinuvga yordam beradi.

Boshqa tomondan an'anaviy qadriyatlar va urf-odatlarni yo'qotish xavfi mavjud[2].

Ijobiy jihatdan globallashuv O'zbekistonni dunyo hamjamiyatiga yaqinlashtiradi, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga va turli madaniyatlarning o'zaro boyishiga imkon yaratadi. Bu jarayon ta'lim, texnologiya va san'at sohalarida innovatsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

Biroq globallashuvning salbiy jihatlari ham mavjud. G'arb va Sharq madaniyatlarining ommaviy axborot vositalari va internet orqali keng tarqalishi milliy qadriyatlarning susayishiga olib kelishi mumkin.

G'arb madaniyatining kuchayib borishi natijasida milliy kiyimlar, urf-odatlar va an'anaviy hayot tarzi o'zgarib bormoqda. Masalan, ilgari do'ppi va atlas matolar kundalik hayotda keng ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda ular asosan tantanali marosimlargagina kiyiladigan liboslarga aylanib bormoqda. Globallashuv natijasida ko'plab chet el atamallari o'zbek tiliga kirib kelmoqda.

Ayniqsa, yoshlar orasida inglizcha va ruscha aralash so'zlashish holatlari ko'paymoqda, bu esa o'zbek tilining sofligiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, keyingi 10 yilda o'z ona tilida so'zlashuvchi yoshlar soni 20 foizga kamaygan[3]. Globallashuv o'zbek tiliga ham foydali, ham xavfli ta'sir ko'rsatmoqda. Chet tillarini o'rganish imkoniyatlari oshgani ijobiy hol bo'lsa, til sofliqi va milliy identifikatsiyaning zaiflashishi salbiy oqibatlardan biridir.

O'zbek xalqining urf-odatlari va milliy qadriyatlariga ta'sir ko'rsatayotgan omillardan yana biri bu – ommaviy madaniyat, ya'ni kino, musiqa, moda, ijtimoiy tarmoqlar va global tendensiyalardir. Ommaviy madaniyatning ta'siri ikki tomonlama bolib, bir tomondan, milliy madaniyatning jahon sahnasiga chiqishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan, ba'zi urf-odatlarning yo'qolish xavfini tug'diradi. Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, uning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning bir necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi[4].

Ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy madaniyat targ'iboti juda faol olib boriladi. Ular asosan, video rolik, elektron surat va qo'shiqlar ko'rinishida bo'ladi. Ularda milliylikimizga zid bo'lgan yot g'oyalar, begona urf-odatlar, mentalitetimizga mutlaqo nomunosib madaniyatlar yoshlar g'oyasiga singdirilishiga harakat qilinadi. Ommaviy madaniyatning shaxs erkinligi niqobi ostida tarqalishi mamlakat yoshlarining o'z xalqi urf-odatlarining yo'qotilishi, milliylikining unutilishi, ayniqsa o'zbek xalqiga mos bo'lgan sharmu hayoning, mehr-oqibatning, nomus, sha'n va oilaviy munosabatlarning qadsizlanishiga olib keladi[5].

"Ommaviy madaniyat" targ'ibotchilarining nazariyalari ham o'ziga xos bo'lib, ular kishini hatto insoniy qadriyatlardan ham uzoqlashtiradi. Masalan, bizda oila masalasiga juda katta ahamiyat beriladi, "Oila – muqaddas" deya e'tirof etilib, uning xavfsizligi, mustahkamligi uchun doimo kurashiladi. "Ommaviy madaniyat"chilar esa oilani erkin hayotga to'siq qo'yuvchi, "bemalol yashash"ga halaqit beruvchi jamoa deb bilishadi[6].

Mazkur fikrlar dolzarb bo'lib, ayniqsa globallashuv sharoitida milliy madaniyat va urf-odatlarining o'zgarish jarayonlari sezilarli darajada jadallashmoqda. Madaniy assimilyatsiyaning yana bir omili bu – migratsiya. Globallashuv jarayonining jadallashishi natijasida migratsiya butun dunyoda keng tarqalgan ijtimoiy hodisaga aylandi. Ish izlash, ta'lim olish, yaxshiroq hayot sharoitlarini topish kabi sabablar tufayli millionlab insonlar boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tmoqda. Bunday harakatlanish madaniy almashuv va o'zaro ta'sir jarayonlarini kuchaytiradi.

Biroq, bu jarayon ko'pincha madaniy assimilyatsiya, ya'ni migrantlarning mahalliy madaniyatga moslashishi yoki o'z madaniyati va urf-odatlarini asta-sekin yo'qotishi bilan kechadi.

Migratsiya jarayonida odamlar turli xil moslashish strategiyalarini tanlashlari mumkin.

Ba'zilar o'zlarini bir xil madaniy guruhdagi odamlar bilan o'rab, ozchilik sifatida yashashni afzal ko'radilar, bu esa mustahkam ijtimoiy aloqalarga ega bo'lgan migrantlar tarmoqlarini shakllantirishga yordam beradi. Ular o'zlarining urf-odatlarini, tillari va qadriyatlarini saqlashni yaxshi ko'radilar.

Boshqa muhojirlar esa yangi mamlakatning madaniyati, tili va qadriyatlarini o'zlashtirib, butunlay assimilyatsiya qilishni tanlaydilar. Ular mahalliy urf-odat va an'analarga moslashib, jamiyatning bir qismi bo'lishga intiladi[7].

Muhojirlarning yangi madaniyatga to'liq moslashishi ularning milliy o'zligini yo'qotishiga olib keladi. Assimilyatsiya jarayonida ular o'z tilini unutib, avlodlarga milliy merosni yetkazish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Yangi jamiyatga qo'shilish natijasida ularning milliy urf-odat va an'analari asta-sekin yo'qolib boradi. O'z milliy qadriyatlaridan voz kechish ular orasida madaniyati o'zgargan, o'z ildizlarini unutgan avlodlarning ulg'ayishiga sabab bo'ladi. Ularning jamiyatda o'z milliy guruhlari bilan aloqalari zaiflashib, birdamlik va hamjihatlik hissi susayadi.

Natijada muhojirlarning avlodlari o'z milliy merosidan bexabar bo'lib, o'zligini topishda muammolarga duch kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, madaniy assimilyatsiya bugungi global dunyoda milliy o'zlikning yo'qolishiga sabab bo'luvchi muhim jarayonlardan biridir. Bu jarayonga ko'pincha migratsiya, ommaviy madaniyat, globalizatsiya sabab bo'ladi. Bu jarayon milliy til, urf-odatlar, qadriyatlar va tarixiy xotiraning susayishiga olib kelishi mumkin. Millat o'z tarixiy ildizlaridan uzoqlashsa, uning madaniy merosi ham asta-sekin yo'qolib boradi. Bu esa jamiyatning bir xillashuviga va milliy identifikatsiya inqiroziga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, milliy o'zlikni asrab-avaylash va assimilyatsiyaga qarshi kurashish har bir jamiyatning muhim vazifasidir. Ona tilini rivojlantirish, milliy madaniyatni targ'ib qilish, ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni mustahkamlash va milliy merosni asrash bu borada bajariladigan muhim choralar hisoblanadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar yordamida milliy madaniyatni ham ommalashtirish zarur.

Agar milliy o'zlikni saqlashga yetarlicha e'tibor berilmasa, kelajak avlodlar o'z ajdodlari merosidan uzoqlashishi mumkin. Shu bois, madaniy assimilyatsiyaning oldini olish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash har bir fuqaroning burchi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulnoz J. Sotsiologiya tarixi.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
2. <https://study.com>
3. <https://russiancouncil.ru>
4. <https://russiancouncil.ru>
5. <https://kknews.uz>
6. <https://uchquduq.uz>
7. <https://nauchniyimpuls.ru>
8. <https://guru.nes.ru>